

MUMTOZ RAQS SAN'ATI NAMUNALARIDAN BIRI

Abdiyeva Gulishod*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi dotsenti*

Annotatsiya. Maqola o'zbek milliy raqs san'atining mumtoz namunalaridan biri - "Tanovar" raqsiga bagishlangan. Muallif xoreografik asarning badiiy-estetik xususiyatlarini taniqli raqqosa va baletmeyster, O'zbekiston xalq artisti Mukarram Turg'unboyeva ijrosida ko'rib chiqadi.

Kalit so'zlar: baletmeyster, raqqosa, asar, kompozitsiya, kuyi, musiqa, ansambl, xoreografiya, sahna, mahurat.

Аннотация. Статья посвящена одному из классических образцов узбекского национального танцевального искусства – танцу «Тановар». Автор рассматривает художественно-эстетические особенности хореографического произведения в исполнении выдающейся танцовщицы и балетмейстера, Народной артистки Узбекистана Мукалррам Тургунбаевой.

Ключевые слова: балетмейстер, танцовщица, произведение, композиция, песня, музыка, ансамбль, хореография, сцена, мастерство.

Annotation. This article is dedicated to one of the classic examples of Uzbek national dance – the dance "Tanovar." The author examines the artistic and aesthetic features of this choreographic work performed by the outstanding dancer and choreographer, People's Artist of Uzbekistan Mukarram Turgunbaeva.

Keywords: choreographer, dancer, work, composition, song, music, ensemble, choreography, stage, skill.

O'zbek milliy ijrochilik san'atining mumtoz namunalaridan biri "Tanovar"dir. Goh ashula, goh kuy va goho raqs shaklida gavalantirilgan "Tanovar" iborasining mazmuni borasida turlicha fikrlar mavjud. Aksariyat hollarda san'atshunoslar tomonidan mazkur so'z "tan" (tana) va "ovar" (intilish) so'zlarining birikmasi sifatida talqin qilinadi. Minglab qalblarni san'atining sehri bilan o'ziga rom etgan o'zbek raqs san'atining buyuk namoyandasi Mukarram Turg'unboyeva maromiga etkazib ijro etgan raqslaridan biri "Tanovar"dir.

Baxt haqidagi orzuga intilish tarzida vujudga kelgan "Tanovar" kuy - qo'shiqlarining bizgacha ma'lum bo'lgan 16 ta turi mavjud: "Tanovar" ashulalari, "Qora sochim", "Tanovar 1-2", "Yovvoyi tanovar", "Gulbahor va tanovar", "Adolcha tanovar", "Farg'onacha tanovar", "Qo'qon tanovari", "Marg'ilon tanovari" va boshqalar. [3, 28-b.] O'zbek milliy raqslari, shu jumladan "Tanovor" raqsini tiklash va uni o'rganishga katta hissa qo'shgan, O'zbekiston xalq artisti Roziya Karimova

“Tanovar” qo‘shig‘ining Farg‘ona vodiysida keng tarqalgani, shuning uchun uning ijrochilari ko‘pincha Farg‘ona, Marg‘ilon, Andijon, Qo‘qondan bo‘lganligi xaqida ma‘lumot beradi. [4, 37-b.]

O‘zbek xalqini qalb qo‘ridan joy olgan, “Tanovar” raqsi bir qarashda yengil, oddiy harakatlardan tashkil topganga o‘xshasa-da, unda aks etgan lirik qahramonning ruhiy olami, ichki his - tuyg‘ulari, boy qalbi, harakatlardagi nozik tebranishlari barchani maftun etib kelgan.

Mumtoz namunaga aylangan ushbu raqsning vujudga kelishi Mukarram Turg‘unboyeva nomi bilan bog‘liq. Onasining yaqin dugonasi dutor chertib, “Qorasoch” ashulasini aytib o‘tirganda, yosh Mukarrama qalbida shu qo‘shiqqa raqs yaratish va ijro etish orzusi nish uradi. Haqiqatdan ham “Tanovar” kuyini tinglagan inson sekin - asta o‘yga cho‘madi, ashulani eshitib qalbi o‘rtanadi, “Tanovar” raqsini ko‘rganida esa butun vujudi jo‘mbushga keladi.

Tarixiy manbalarda takidlanishicha, “Tanovar” raqsining kelib chiqishi hakida yana bir ma‘lumot bor. 1930 yili Moskvada qo‘yilayotgan konsertlarning birida ajoyib rus balerinası Yekaterina Gelser ijrosidagi “O‘layotgan oqqush” raqsi Mukarram Turg‘unboyevada katta taassurot qoldiradi. [2, 71-b] Bu raqsdan ilhom olgan Mukarram Turg‘unboyeva ana shunday nozik va nazokatli raqsni yaratish hamda ijro etishni maqsad qiladi.

Raqqosa Moskvadan qaytib kelishi bilan butun Farg‘ona vodiysi bo‘ylab kuyi, ohangi, mazmuni bilan bir-biriga o‘xshaydigan ayollar qo‘shig‘ini to‘play boshladi. Usta raqqosalar hamda qo‘shiqchilar o‘ziga hos bu ayollar qo‘shiq –raqs janrini “Tanovar” deb atashlarini aniqladi. M.Turg‘unboyeva o‘z raqsini “Tanovar” deb atashining sababi Farg‘ona vodiysida ayollar ijro etadigan kuy - qo‘shiqlarining umumiy nomi “Tanovor” bo‘lgani hamda bu raqsning birinchi ijrosi vaqtida mahsi-kovush kiyilganidadir. O‘sha vaqtlarda mahsi-kovushning g‘irchillashi raqqosaga ritm berib turar edi. Mahsido‘z kosiblar esa bu tovushni tanovar deb atashgan. To‘plangan ma‘lumotlar asosida 1943 yilda “Tanovar” raqsi dunyoga keldi.

Avvaliga “Tanovar” raqsi hammaga ham ma‘qul tushavermadi. 1943 yilda Mukarram Turg‘unboyeva bu raqsni Moskva Badiiy teatrıda ijro etdi. Urush davrida sahn alashtirilgan bu raqsni buyuk aktyor M.Moskvından boshqa barcha mutaxassislar sovuq qarshi oldi. Vatanparvarlik mavzuida bo‘lmagan raqsni M.Moskvin himoya qilib, “Axir bu harbiy raqs bo‘lmay tag‘in nima – yosh ayol sevgan yorini ko‘rishga mushtok, u esa frontda jang qilayapdi. “Tanovar” - bu frontga jo‘natilgan maktub-ku”... deb javob qaytaradi. [3, 29-b.]

Raqqsshunos olimı, san‘atshunoslik fanlari nomzodi Lyubov Avdeyeva o‘z esdaliklaridan birida “Tanovar” haqida shunday yozadi: “Bu raqs - dildagi dardni izhor etuvchi, saodatni orzu qiluvchi, yolg‘izlikdan seviklisi tomon, insonlar tomon intilishdek otashin ishtiyoq yashiringan qalb eshigini lang ochish raqsıdir” [4, 23-b]. “Tanovar” n

i hech kim, hech qachon va hech qayerda, Mukarramxonimdek latofat va nazokat, ma horat va dardli harorat bilan ijro etmagan”,- degan edi taniqli shoirimiz ZulfiY. [4, 7-b].

“Tanovar” raqsini barcha raqqosalar ham maromiga yetkazib ijro eta olmaydilar, chunki raqsnig o‘ziga hos qonun - qoidalari bor. Bu raqsning asosiy xususiyati sezgir qo‘llar va barmoqlarning harakatlanishidir. Shunga ko‘ra, raqs ijrochisi ijro mahoratiga, tajribaga ega bo‘lmog‘i hamda raqsda ifoda etilgan dardni qalbi bilan his etmog‘i lozim.

Raqs mazmuni haqida turlicha qarashlar bor, ular orasida O‘zbekiston xalq artisti Roziya Karimovaning e‘tirofini eng teran ta’rif desak bo‘ladi: “Yaxlit holatda qiyomiga yetkazib ijro etilgan san’at asari bu - “Tanovar”dir. Undan ortiqcha bir harakatni olib tashlab xam bo‘lmaydi, qo‘shib xam. Mana, bir necha yillardan buyon o‘zbek xalqi saxnasida mohir raqqosalar tomonidan ijro etib kelinmoqda. Uni o‘zgartirishga faqat mualliflarningina haqqi bor. Shu ma’noda, Mukarrama Turg‘unboyeva ijro etishi jarayonida ba’zan yurak toshqinlari ila qo‘shimcha qo‘l va oyoq harakatlari, imo-ishoralarni kiritardi. Mukarram Tug‘runboyevaning barcha raqslari uning ichki ruxiy holatlaridan tug‘ilar edi. Zero “Tanovar” da biroz ortiqcha harakatlar kiritilganda ham bari bir asl ma’no o‘zgarmagan. Ammo ustoz Mukarram Turg‘unboyeva yaratgan bu “Tanovar” raqsini shu holatda asliy nushasini ijro etish shart deb qo‘yilgan” [4, 24-b].

“Tanovor” raqsi ilk bor balet sifatida 1971 yilda Alisher Navoiy nomidagi katta akademik teatrida baletmeyster Yulduz Ismatova tashabbusi bilan sahnalashtirilgan. Yarim asrdan ko‘proq vaqt o‘zbek baletining tashkilotchisi bo‘lgan Yulduz Ismatova raqs sahnasidan baletga o‘tishning dasturini ishlab chiqdi. Uning bu intilishlari natijasida “Tanovor” raqs ansambli tashkil etildi. Mukarram Turg‘unboyeva bilan yonma-yon ijod qilish baxtiga muyassar bo‘lgan betakror san’atkor Qodir Mo‘minov ilk bor “Tanovor” raqsining ommaviy ko‘rinishini sahnaga olib chiqdi.

O‘zbek sahnasida gultoj bo‘lib qolgan “Tanovar” raqsini bugungi kunda ijro etishga bel bog‘laganlar ham talaygina. Albatta, Mukarram Turg‘unboyevaning yaratgan barcha raqslari katta ijro mahoratini talab qiladi. Maftunkor “Tanovar” raqsini Mukarrama Turg‘unboyevaning shogirdlari va izdoshlari, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan hamda xalq artistlaridan Ma’mura Ergasheva, Qunduz Mirkarimova, O‘g‘iloy Muxammedova, Qizlarxon Do‘smuhamedovalar ijro etganlar. Bugungi kun yosh ijrochilardan bu ajoyib raqsni sahnaga olib chiqish uchun tinmay izlanish, o‘z ustida muntazam ishlash, tajriba orttirish va mehnat qilish talab etiladi. 80 yilga yaqin vaqt mobaynida bizgacha etib kelgan “Tanovar” raqsining asl mohiyatini saqlab qolish, uni kelajak avlodga yetkazish barcha ijodkor va san’atshunoslarning vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avdeyeva L.A. O‘zbek milliy raqsi tarixidan – T.: 2001.

2. Авдеева Л.А. Мукарам Турғунбоева рақси – Т.: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
3. Авдеева Л., Қодиров М., Исмазова Ю. “Тановар” рақси жилolari. – Т.: 2002.
4. Каримова Р. Тановар. – Т.: 1993.
5. Muxamedova M.A. Jahon va o‘zbek xoreografiya san’ati tarixi. – Т.: Navro‘z, 2021.

